

**FAVQULODDA VAZIYATLARDA EVAKUATSIYA TADBIRLARINI
TASHKILLASHTIRISH.**

Gaibnazarov Sunnatilla Baxodirjanovich

Ilmiy rahbar; Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti, "Hayot faoliyati xavfsizligi" kafedrasida PhD dotsenti

G'ulomjonov Botirjon G'ulomjon o'g'li

Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti, Geologiya-qidiruv va kon-metallurgiya fakulteti, 20-21 guruh talabasi

Annotatsiya: *Aholini turli xususiyatlardagi favqulodda vaziyatlardan muhofazalash, barcha ob'ektlar, tashkilotlar va muassasalar rahbarlarining eng asosiy vazifalaridan bo'lib, bu narsa «Aholi va hududlarni tabiiy xamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to'g'risida» gi Qonunning 11-moddasida bayon etilganidek, belgilangan tartibda evakuatsiyaga oid tadbirlarni o'tkazish va odamlarni joylashtirish maqsadida oldindan bazalar tayyorlab qo'yish lozimligi qayd etilgan. Shu sababali hozirgi vaqtda xam favqulodda vaaziyatning ko'lamiga qarab muhofaza qilishni eng omil usullaridan biri imkon darajasida aholini xavfli joylardan olib chiqib ketish, ya'ni evakuatsiya tadbiri hisoblanadi.*

Evakuatsiya tadbirlarining mohiyati va asosiy tamoyillari.

Favqulodda vaziyatlar va boshqa ekstremal holatlar sodir bo'lganda yoki sodir bo'lishi xavfi yuzaga kelganda aholini, moddiy va madaniy boyliklarni muhofaza qilishning asosiy usullaridan biri - evakuatsiyadir. Bugungi kunda dunyoda tabiiy ofatlarning sodir bo'lishi kundan-kunga oshib bormoqda. Ushbu ofatlar natijasida aholini xavfsiz va samarali evakuatsiya qilish zaruriyati tug'iladi va bu butun dunyo bo'yicha dolzarb muammoga aylanib ulgurgan.

Shu sababali hozirgi vaqtda xam favqulodda vaziyatning ko'lamiga qarab muhofaza qilishni eng omil usullaridan biri imkon darajasida aholini xavfli joylardan olib chiqib ketish, ya'ni evakuatsiya tadbiri hisoblanadi. Lekin bu tadbir ancha murakkab bo'lib, barcha organlarni tayyorgarlik ko'rishlarini, fuqarolarni qanday xarakat qilishga o'qitishga ahamiyat berishni talab etadi.

Chunki ofat ro'y bergan joyga maxsus xizmat tizimi bo'limlari va boshqa xududlardan asosiy yordam kuchlari yetib kelgunicha kamida bir necha kun vaqt kerak bo'ladi. Tezlik bilan xarakat qilinmasa, favqulodda vaziyatlar ayancli oqibatlarga olib kelishi mumkin. 1999 yil Turkiya davlatining ayrim hududlarida sodir bo'lgan zilzila tufayli 30.000 odam xalok bo'lgan. 1995 yilda Yaponiya davlatini Kobe shaxrida bo'lgan zilzila oqibatida 6.000dan ortiq odam nobud bo'lgan, ko'rilgan moddiy zarar 100 mlrd.

AKSh dollariga teng deb baholangan. Ruminiya davlatini Baya-Borla shaxri yaqinida joylashgan yarim metall tog' jinslarini qayta ishlash korxonasida sodir bo'lgan

favqulodda vaziyat tufayli 20.000 tonna o'ta kuchli zaharlovchi moddalar Visheu va Tisa daryolari irmog'iga oqib ketgan.

Braziliya, Indoneziya, Rossiya davlati, Yevropaning bir qator davlatlarida sodir bo'lgan suv toshqinlari, o'rmonlarning yonishi, kuchli shamollar ko'lami, xar-xil bo'lgan favqulodda vaziyatlarni sodir bo'lishiga olib kelgan. Pirovardida tinch aholini yashash sharoiti nixoyatda yomonlashib, odamlarni xavfsiz joylarga ko'chirishga sabab bo'lgan.

Xavfning oldini olishga tayyorgarlik aloqa va axborot vositalarining doimiy shayligini nazorat qilishga, takomillashtirishga, evakuatsiya rejalarini o'z vaqtida o'tkazishga, tibbiy yordam ko'rsatishga chorlaydi. Bundan tashqari, tayyorgarlikning yuqori bo'lishi aholini va mas'ul shaxslarni tayyorlash va malakasini oshirishga, qutqarish kuchlarini xavf tug'ilganda falokat vaqtida tezlik bilan to'g'ri xarakat qilishga o'rgatadi. Tadbir o'tkazish vaqti va muddatiga karab aholini ko'chirish ikki turga ajratiladi:

- oldindan o'tkaziladigan ko'chirish;
- shoshilinch (kechiktirib bo'lmaydigan) ko'chirish;

Oldindan o'tkaziladigan ko'chirish - favqulodda vaziyat (xavfli ob'ektlardagi falokatlar yoki ofatlar) yuzaga kelishi extimoli yuqori darajada ekani xaqida, ishonchli ma'lumot olinganda o'tkaziladi

Bunga bir necha o'n daqiqadan bir necha sutkacha davr ichida favqulodda vaziyat sodir bo'lishi mumkinligi xaqidagi oldindan taxminlash asos xisoblanadi.

Shoshilinch (kechiktirib bo'lmaydigan) ko'chirishlar - odamlarning xayoti va salomatligiga xavf tug'iladigan darajada texnogen yoki tabiiy tusdagi favqulodda vaziyat yuzaga kelgan, aholining risoladagidek kun kechirishi buzilgan taqdirda o'tkaziladi.

Evakuatsiya tadbirlarini rejalashtirishning o'ziga xosligi.

Ko'chki xavfi bor joylardan aholini, moddiy va madaniy boyliklarni evakuatsiya qilish. Bunday evakuatsiyalar kor ko'chish xavfi tugilganda, shuningdek ko'chki tushib bo'lgandan keyin (turmush kechirishni ta'minlash ob'ektlari (buzilganda) o'tkaziladi. Aholini evakuatsiya qilish xududiy prinsipda, bir bosqichda o'tkaziladi, cheklangan tasnifda bo'ladi xamda oldindan o'tkaziladigan, buning iloji bo'lmaganda esa shoshilinch bo'lishi kerak.

Xalokatli suv bosish va toshkin paytida. Aholini evakuatsiya qilish gidrotexnika inshootlari buzilish xavfi tufilgan yoki buzilgan xollarda yoxud suv xavzalaridagi suv satxi ko'tarilib ketganda (toshganda), shuningdek ob'ektlarni risoladek ishlashi buzilganda va aholining turmush kechirish sharotitini ta'minlash tizimlarini suv buzib ketganda o'tkaziladi. Bunday sharoitda aholini evakuatsiya qilish cheklangan yoki maxalliy tasnifda bo'lishi mumkin. Oldindan o'tkaziladigan evakuatsiyalarda EKAYP yo'lga ko'yiladi (ishlab chiqarish-xududiy prinsipda). Oldindan o'tkazish davri kiska bo'lganda aholini va moddiy va madaniy boyliklarni evakuatsiya qilish xududiy prinsipga binoan 1 yoki 2 bosqichda (EOP ni yo'lga ko'yib) o'tkaziladi. Xalokatli yong'in sodir bo'lganda. Yong'in eng xavfli texnogen xodisa bo'lib kiska vaqt ichida xalk

xo'jaligiga katta moddiy zarar yetkazishi bilan bir katorda odamlarning xayotiga xam zomin bo'lishi mumkin.

Shuning uchun barcha ma'muriy binolarda, ishlab chiqarish korxonalarining binolarida, davolash, ommaviy tomosha, yotokxona binolarida yong'in chikkanda shu binoda bo'lgan odamlarni evakuatsiya kilish chizmasi xammaga ko'rinadigan joylarga ilib ko'yiladi, odamlarning zudlik bilan binoni tark etishlari uchun barcha o'tish joylari, yo'lkalar, daxlizlar ravon bo'lishi, yo'lkalarda odamlarga xalakit beradigan narsalarning bo'lishiga yo'l ko'yilmaydi. Aholini, moddiy va madaniy boyliklarni evakuatsiya kilishni ta'minlash.

Aholini evakuatsiya kilishni uyushkoklik bilan o'tkazish maksadida ta'minotning kuyidagi turlari rejalashtiriladi va amalga oshiriladi: tibbiyot, jamoat tartibini saklash va transport, yo'l xarakati xavfsizligini ta'minlash, muxandistik, moddiy-texnikaviy, aloka va xabarlash, kuzatuv ta'minotlari.

Texnogen tusdagi xalokatlar va tabiiy ofatlar xududlaridan aholini ko'chirishga mo'ljallangan transport vositalari bilan ta'minlash - bu ko'chirishda tashish ishlarini bajarishga mo'ljallangan transport vositalarini tayyorlash, taksimlash va ishlatishni kamrab oladigan tadbirlar majmuidir.

Aholini evakuatsiya kilish transport vositalari belgilangan saroyi, yigilish joyi bo'lishini, bu vositalarni (jumladan, aholining xususiy foydalanishida bo'lgan transportlarni) aholini evakuatsiya kilish tadbirlarini amalga oshirilishiga jalb kilinishini, davlatlararo aloka yo'llaridan imkon darajasida foydalanishni talab etadi.

Tabiiy va texnogen tusdagi FV vaziyat yuz berganda aholini, FV yuz bergan xududdan tez olib chikib ketishda katta samara beruvchi aralash usuldan foydalaniladi. Radioaktiv ifloslanish xududlaridan aholini evakuatsiya kilishda transport bilan ta'minlash ikki bosqichning xar biri uchun rejalashtirilgan bo'lishi kerak.

Favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish tadbirlarini rejalashtirish.

O'zbekiston Respublikasi «Aholini va hududlarni tabiiy xamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to'g'risida»gi va «Fuqaro muhofazasi to'g'risida»gi qonunlarini amalda ishlashi xamda fuqaro muhofazasining asosiy vazifalarini bajarilishini ta'minlash, fuqaro muhofazasi rejasi va uning mukamalligi bilan uzviy bog'liq.

Fuqaro muhofazasining rejasi - bu quyilgan vazifalarni muvaffakiyatli bajarilishiga yordam berishi kerak bulgan muhofaza tadbirlarining oldindan ishlab chikilgan, asoslangan, moddiy ta'minlangan majmuasidir.

O'zbekiston Respublikasining «Aholini va xududlarni tabiiy xamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza kilish to'g'risida»gi qonunining 8-moddasiga asosan, favqulodda vaziyatlardan muhofaza kilish bo'yicha maxsus vakolatli davlat boshqaruv organi O'zbekiston Respublikasi Favqulodda Vaziyatlar Vazirligidir. FVV to'g'risidagi Nizomning 4-moddasiga asosan Favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish, aholi xayoti va salomatligini, moddiy va madaniy qadriyatlarini

muhofaza kilish, shuningdek, tinchlik va urush vaqtida FV vujudga kelganda ularning oqibatlarini tugatish xamda zararlarini kamaytirish soxasidagi davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish

O'zbekiston Respublikasi FVVning asosiy vazifalaridan bir xisoblanadi, nizomning 5-moddasiga asosan esa uziga yuklatilgan vazifalarga muvofiq FVV O'zbekiston Respublikasi xududida FV oldini olish va bartaraf etish tadbirlarini ishlab chiqishni va amalga oshirishni tashkil etadi, Favqulodda vaziyatlarda ularni oldini olish va xarakat kilish davlat tizimi faoliyatiga raxbarlikni amalga oshiradi, O'zbekiston Respublikasi Fuqaro muhofazasi rejalari loyihalarini ishlab chiqadi va tasdiklash uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga belgilangan tartibda taqdim etadi deyilgan. Xamda «Fuqaro muhofazasi to'g'risida»gi qonunning 8-moddasiga binoan, o'z vakolati doirasida davlat xokimiyati va boshqaruv organlari, tashkilotlar, mansabdor shaxslar va fuqarolar uchun bajarilishi majburiy bo'lgan qarorlar qabul qiladi;

O'zbekiston Respublikasi fuqaro muhofazasining rejasi loyixasini ishlab chikadi;

Fuqaro muhofazasi kuchlari va vositalarining jangovarlik xamda safarbarlik tayyorgarligini ta'minlaydi deyilgan.

FMni rejalashtirish - FMni boshkarish jarayonining eng muxim tarkibiy kismi. U tinchlik va urush davrlari sharoitlarini taxlil qilish va ularga baxo berishdan, urush vaqtida aholini muhofaza qilish va xalq xo'jaligi ob'ektlari va tarmoqlarining chidamligini oshirish yuzasidan FM tadbirlarini belgilashdan, avariya-qutqarish ishlarini o'tkazishga kuch va vositalarni tayyorlashdan, ular faoliyatini va boshqaruv organlarini xar tomonlama ta'minlashdan iboratdir. Bu tadbirlar bajarilishi uchun kerakli resurslar ajratiladi, amalga oshirish ketma-ketligi, muddatlari, usullari belgilanadi xamda FM tadbirlarini utkazish uchun mas'ul kishilar tayinlanadi.

FM tadbirlarini rejalashtirish FM natijasida yuzaga kelishi extimoli bo'lgan sharoitni oldindan ilmiy bashoratlashga, FM taraqqiyotida erishilgan darajaga, mamlakat ijtimoiy-iktisodiy taraqqiyotining ahvoli va istiqbolloriga tayangan bo'lishi kerak. Rejalashtirishdan asosiy maqsad FV yuzaga kelgan xolda, shuningdek tabiiy ofatlar, yirik avariya va xalokatlar okibatlarini tugatishda FM tadbirlarini amalga oshirishdan iborat. Rejalashtirish - fuqaro muhofazasini boshkarish jarayonining eng muhim tarkibiy qismi. U tinchlik va urush davrlar sharoitlarini taxlil qilish va ularga baxo berishdan, urush vaqtida aholini muhofaza kilish va xalq xo'jaligi ob'ektlari va tarmoqlarining chidamligini oshirish yuzasidan fuqaro muhofazasi tadbirlarini belgilashdan, avariya-qutqaruv ishlarini utkazishga kuch va vositalarni tayyorlashdan, ular faoliyatini va boshkaruv organlarini xar tomonlama ta'minlashdan iboratdir.

Fuqaro muhofazasi rejalari, ularni ishlab chikilish va mazmuniga qo'yiladigan asosiy talablar. Aholini va xududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza kilish tadbirlarini barvaqt amalga oshirish favqulodda vaziyatlarning oldini olish, ular sodir bulgandagi zarar va talafotlarni kamaytirish maqsadida respublika, idoralar, xokimiyatlar va ob'ektlarning xatti-xarakat rejalari, shuningdek FVDTning xamma

darajalarida xamkorlik rejalari ishlab chiqiladi. Reja tinchlik va harbiy xarakatlar davrlariga alohida-alohida ishlab chiqiladi.

Favqulodda vaziyatlar chogida aholini va xududlarni muhofaza qilish bo'yicha xarakatlar rejasini maxalliy davlat xokimiyati organlari ishlab chikadilar, xodimlar xamda ishlab chiqarish va ijtimoiy ob'ektlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish bo'yicha zarur choralarni rejalashtirish korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish soxasidagi majburiyatlari xisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi favqulodda vaziyatlarda ularni oldini olish va xarakat qilish davlat tizimi faoliyatini rejalashtirishga Favqulodda vaziyatlar vazirligi tashkiliy-uslubiy raxbarlik kiladi. Vazirliklar, idoralar va tashkilotlarda fuqaro muhofazasiga rahbarlik qilishni ularning lavozimiga ko'ra mazkur organlar va tashkilotlar fuqaro muhofazasi boshlig'i bo'lgan rahbarlari amalga oshiradilar.

Fuqaro muhofazasi boshligi o'z vakolatlari doirasida quyidagi xuquqlarga ega:

- fuqaro muhofazasining tegishli rejalarini amalga joriy etish;
- aholini, moddiy va ma'naviy boyliklarni xavfsiz joylarga evakuatsiya qilish to'g'risida qaror qabul qilish;
- fuqaro muhofazasi bo'yicha direktivalar, buyruqlar, qarorlar va farmoyishlar chiqarish.

Aholini va xududlarni zamonaviy qirg'in vositalari qo'llanilishi oqibatlaridan muhofaza qilish va fuqaro muhofazasi soxasidagi tadbirlarni amalga oshirishga oid xarakatlarni muvofiqlashtirish tegishli xududlar, tarmoklar va tashkilotlarning fuqaro muhofazasi boshliklari zimmasiga yuklanadi. Fuqaro muhofazasi tadbirlari xududlarning iktisodiy, tabiiy va boshka tavsiflarini, xususiyatlarini xamda favqulodda vaziyatlar sodir bulish xavfi kanchalik realligini xisobga olib, oldindan rejalashtiriladi va amalga oshiriladi.

Maksimal darajada muhofaza qilish maqsadida xamma fuqaro muhofazasi rejalariga reja to'liq ishlab chiqilishi, mazmun qisqa bo'lishi, vaqt qat'iy xisobga olinishi, reallik va aniqlik, iktisodiy maqbullik talablari qo'yiladi. Rejaning to'liq ishlab chiqilishi o'zini muvaffaqiyatli bajarilishini va bosh vazifa - aholi va moddiy boyliklar muhofaza qilinishi xal etilishini ta'minlaydigan tadbirlar kompleksi ishlab chiqilishidan iborat. Shuning uchun rejada aniq tadbirlar, ularning mazmuni, shakli muddatlari va ijrochilari ko'rsatiladi.

Reja bo'limlarining bayoni qisqa bo'lishi ulardan foydalanish oson bo'lishi uchun kerak. Shuning uchun rejaning mazmunli bo'lishiga undagi xamma tadbirlar to'liq ishlab chiqilgan grafik yo'l bilan erishiladi. Buning uchun sxema-xaritada ob'ektlar, ish turlari va hajmi shartli belgilar bilan tasvirlanadi. Tushuntirishlar jadvallar, sxemalar, grafiklar, suratli sharxlar, tushuntirish xatlari tarzida beriladi (bu ikki talabni rejaning ilova tarzidagi jadvalida ko'rsatilsa bo'ladi). Vaqtning qat'iy xisobga olinishi rejalashtirilgan xar bir tadbir sifatli va to'liq hajmda bajarilishi uchun kerak.

Rejaning aniq va real bo'lishi u bajarilishining zarur tartibi hisoblanadi. Buning uchun maxalliy sharoit ma'lumotlari sinchiklab o'rganiladi: extimoli bo'lgan

vayronalik, talofatlar, moddiy zarar oldindan bashoratlanadi, oqibatlarini yo'qotilishi uchun kerakli kuch va vositalarga bo'lgan talab xisoblab chiqiladi. Raxbarlar tarkibining professional tayyorligi sharoitini oldindan taxminlay olishi, tez qarorga kela bilishi bilan belgilanadi. Ob'ektiv reallikka baxo berish va tadbirning bajarilish vaqtini belgilash taktik-maxsus ukuv mashklarda, amaliy mashg'ulotlarda, trenirovkalarda bajariladi.

Iqtisodiy makbullik - tinchlik davrida xam, xarbiy xarakatlar vaqtida xam muhofaza inshootlaridan foydalanishni xisobga olib borish imkoniyatidir. Ular tinchlik davrida madaniy-maishiy xonalar va korxonalar (kafe, bar, kirxona, ombor, garaj, yer osti bushliklari) bo'lsa, urush vaqtida muhofaza inshootlari bo'ladi. Rejaga yagona talab qo'yilishi, bir tomondan kelishib olish uchun kerak bo'lsa, ikkinchi tomondan zarur bo'lib qolganda ulardan foydalanish qulay bo'lishi uchun kerak.

Reja tuzishdagi ish hajmi shartli ravishda to'rt bosqichga bo'linadi;

-birinchi bosqichda ijrochilar tarkibi, ularning tayyorligi aniqlanadi, bor ma'lumotlar, hujjatlar o'rganiladi, materiallar umumlashtiriladi, takvimiy reja ishlab chiqiladi;

-ikkinchi bosqichda reja amalda ishlab chiqiladi va reja hujjatlari tuziladi;

-uchinchi bosqichda xamma tadbirlar bir-biriga moslashtiriladi va yuqori tashkilot bilan kelishib olinadi, zaruriyat bo'lsa reja tuzatib to'g'irlanadi va tasdiqlanadi;

-to'rtinchi bosqichda rejalashtirilgan tadbirlar reja tasdiqlangandan keyin tegishli ijrochilarga yetkaziladi.

Rejalar ishlab chiqishni bevosita tashkil etish tegishli fuqaro muhofazasi boshligiga yuklatiladi, rejalarini ishlab chiqishga fuqaro muhofazasi shtatli xodimlari, boshkarma va bo'lim boshliqlari, evakuatsiya komissiyasi, fuqaro muhofazasi xizmatlari va bo'limlari, xalk xo'jaligi ob'ektlarining bosh mutaxassislari jalb qilinadi. Rejani ishlab chiqishga jalb etiladigan mansabdor shaxslar fuqaro muhofazasi boshligining buyrug'ida belgilanadi.

Shunday kilib xar bir raxbardan tortib xodimgacha favqulodda vaziyat vujudga kelganda aholini kuchirish bo'yicha uz geografik sharoitidan kelib chikkan xolda chora tadbirlar ishlab-chiqishi lozim. Birinchidan favqulodda vaziyatning turi va kulamiga karab: Ikkinchidan tezlikda aholini guruxlarga ajratib transportda yoki piyoda xolda kuchirish: Bu tadbirlarni muvaffakiyatli utkazish uchun oldindan barcha tabaka odamlarni urgatishimiz lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi 2009 yil 30 sentyabrdagi "Yong'in xavfsizligi to'g'risidagi" 226-Qonuni;

2. O'zbekiston Respublikasi mudofaa vazirining 2020 yil 27 iyundagi "O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi Yong'indan saqlash xizmati to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 444-sonli buyrug'i;

3. O'zbekiston Respublikasi mudofaa vazirining 2020 yil 31 dekabrda "O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi Yong'in nazoratini tashkil etish va amalga oshirish bo'yicha nizomni tasdiqlash haqida"gi 828-sonli buyrug'i;

4. B.V.Grushevskiy, N.L.Kotov, V.I.Sidoruk, V.G.Tokarev, Ye.T.Shurin. Qurilishda yong'in xavfsizligi profilaktikasi. –Moskva. 1989.

5. Raxmatov B.E., Gubayev N.A. Xavfsizlik texnikasi va nazorat. III qism. – Samarqand: SOHAQMBYU nashri, 2010. -14

6. <http://www.infocenter.uz>

7. <http://www.ziyonet.uz>

8. <http://www.lex.uz>